

# Sarhisob: "O'zkimyosanoat" AJ tarmog'ida inson resurslari bilan ishlash bo'yicha 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar

// 09.01.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob-o-zkimyosanoat-aj-tarmog-ida-inson-resurslari-bilan>

## Uzkimyosanoat INSON RESURSLARI BILAN ISHLASH BO'YICHA 2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR



Har qanday sohaning taraqqiyoti unda faoliyat olib borayotgan mutaxassis va kadrlarning salohiyatiga bevosita bog'liq. Shu ma'noda "O'zkimyosanoat" AJ ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda.

Bu borada 2024-yilda Jamiyat tomonidan qator ishlar amaga oshirildi. Xususan, tarmoqda faoliyat borayotgan 6176 nafar ishchi-xodimlarning malakasi oshirildi. Ushbu maqsadlar uchun 3 mlrd 274 mln so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilda tizim korxonalarida jami 2114 nafar talaba amaliyotlarga jalb etildi. Amaliyot davrida ularga korxonalarining 288 nafar malakali mutaxassislari ustoz sifatida biriktirildi. Yana bir muhim jihat - ta'lim muassasalarining 38 nafar professor-o'qituvchilari uchun tarmoq korxonalarida stajirovkalar tashkil etildi.

Salohiyatli yoshlarni saralash, ularni zahiraga olish, iqtidorli bitiruvchi talabalarni aniqlash va ishga taklif qilish bilan tarmoqni malakali kadrlarlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 2024-yilning 27-may - 1-iyun kunlari "Barqaror rivojlantirish va yashil iqtisodiyot" Xalqaro kimyo haftaligi doirasida Toshkent kimyo-texnologiya instituti, D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filiali, Yangi O'zbekiston universiteti talabalari va tarmoq korxonalarining yosh mutaxassislari uchun ilk bor "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari ilmiy-intelektual forumi" o'tkazildi.

Ayni yo'nalishda xalqaro hamkorlik aloqalari ham faol olib borildi. Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ

tomonidan Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan birgalikda amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda kimyo texnologiyalari markazining salohiyatini oshirish" loyihasi muhim o'rin tutdi. "Koreya-O'zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti - Kimyo texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish" investitsiya loyihasi doirasida - 14 nafar munosib nomzodlar saralab olinib, bahorgi va kuzgi o'quv yillari uchun mos ravishda 2023-yil mart va avgust hamda 2024-yil mart va sentabr oylarida Koreya Respublikasiga o'qishga yuborildi. Ulardan 4 nafari doktorantura va 10 nafari magistratura yo'nalishda tahsil olishdi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati topshirig'i ijrosini ta'minlash, yoshlarning kimyo sohasiga qiziqishi maktab davridan boshlab oshirish maqsadida Navbahor tumani 2-kasb hunar maktabi (Navbahor tuman 2-son politexnikumi)ning "Navoiyazot" Ajga birlashtirilgan o'quv va laboratoriya xonalari ta'mirlandi va kimyo sohasining eng zamonaviy ko'rgazmali qurollari bilan jihozlandi. Muassasada korxonaning yosh mutaxassislari uchun "Kimyoviy tahlil laboratoriyasi laboranti" mutaxassisligi bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirish va qayta o'qitish hamda Kimyoviy tahlil laboratoriyasi laboranti, Nazorat o'lchov asboblari chilangari mutaxassisligi bo'yicha o'qish istagi bo'lgan viloyat yoshlarini hamkorlikda dual ta'lim tizimi asosida o'qitish tashkil etildi.

Shuningdek, 2024-yilda kimyo sanoati tomonidan Qo'qon shahridagi 19-sonli o'rta umumta'lim maktabi qisqa muddatlarda to'liq ta'mirlanib, jihozlandi. Maktab o'quvchilari 2024/2025-o'quv yilini zamonaviy ta'mirlangan maktab binosida boshladilar. O'quv yili boshida maktab o'quvchilarini kimyo sanoati sohasiga qiziqtirish maqsadida D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filiali professor-o'qituvchilari hamda talabalari bilan uchrashuvlar tashkil etildi.

2024/2025-o'quv yilidan D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filialida tarmoq korxonalarini hamda respublikaning boshqa tarmoqlari ehtiyojlarini inobatga olib, 3 ta yangi yo'nalish - pedagogik ta'lim, farmatsiya va zamonaviy energetika materiallarining kimyoviy texnologiyasi yo'nalishlari, mavjud Kimyo texnologiya yo'nalishida esa 2 ta, ya'ni Yuqori molekulyar birikmalar va Mineral o'g'itlar kimyoviy texnologiyasi ta'lim dasturlari yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, sohaviy OTMlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, laboratoriya sharoitlarini yaxshilash, zaruriy kimyoviy reagentlar bilan ta'minlash maqsadida D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent shahridagi filialiga 2 mlrd so'm, Toshkent kimyo-texnologiya institutiga jami 677,7 mln so'mlik moliyaviy ko'mak ko'rsatildi.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" Ajning Kimyo sanoati sohasida kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha Tarmoq kengashi tomonidan 2024-yilda 37 ta kasbiy standartlar ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining maxsus platformasiga joylashtirildi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**